

OLIV TALIM MUASSASALARIDA RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING DIDAKTIK MODELLARI

Mullajanova M.A

ADU katta o'qituvchisi

Mirodilova Sh

ADU 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada raqamlashtirish sharoitida ta'lim samaradorligini oshirishda zamonaviy didaktik modellarining o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilgan ta'lim jarayonida innovatsion yondashuvlar, interaktiv metodlar hamda o'quvchi faolligini oshiruvchi didaktik modellar ko'rib chiqiladi. Shuningdek, ta'lim sifati va natijadorligini oshirishda raqamli muhitning imkoniyatlari hamda ularni amaliyotga tatbiq etish yo'llari yoritiladi.

Kalit so'zlar: raqamlashtirish, ta'lim samaradorligi, didaktik modellar, raqamli ta'lim, innovatsion metodlar.

Bugungi kunda jamiyatning barcha sohalarida raqamlashtirish jarayoni jadal sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda. Ushbu jarayon ta'lim tizimiga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmayapti. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng joriy etilishi natijasida ta'lim jarayonining mazmuni, shakli va usullari tubdan yangilanmoqda. Zamonaviy ta'lim tizimi endilikda nafaqat bilim berishga, balki o'quvchilarda mustaqil fikrlash, muammoni hal qilish va ijodiy yondashuv ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilmoqda.

Shu nuqtai nazardan, ta'lim samaradorligini oshirishda didaktik modellar alohida ahamiyat kasb etadi. Didaktik model – bu ta'lim jarayonini tashkil etishning nazariy asoslangan tizimi bo'lib, unda maqsad, mazmun, metod va natijalar o'zaro uzviy bog'liq holda ifodalanadi. Raqamlashtirish sharoitida ushbu modellarni zamon talablariga mos ravishda takomillashtirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Raqamlashtirish jarayoni nafaqat shaharda balki shaharning chekka qishloqlariga yetib bordi. Har bir maktabning o'quvchilari bu zamonaviy texnologiyalardan foydalanib kelmoqda va bunga bo'lgan qiziqishlar va talablar kundan kunga keskin ortib bormoqda. Faqatgina ta'limda emas boshqa sohalarida ham raqamlashtirish muhim rol o'ynamoqda. Masalan: iqtisodiyot, bank, xizmat sektori shuningdek ta'lim jarayonini ham tez sur'atlarda rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Mamlakatimizda yashayotgan barcha fuqarolar, jumladan yosh bolalardan tortib nafaqaxo'rlarning ham ongida raqamli

texnologiyalar orqali jamiyatdagi barcha muammolarni hal qilish mumkin degan fikrni shakllantirmoqda.

Raqamlashtirish – bu axborotni raqamli shaklda yaratish, saqlash va uzatish jarayonidir. Ta’lim sohasida esa bu tushuncha elektron darsliklar, onlayn platformalar, masofaviy ta’lim tizimlari va interaktiv vositalardan foydalanishni anglatadi. Agar har biriga to’xtaladigan bo’lsam, bu qulayliklar yoshlar va mamlakatimiz uchun yaxshi natijalarga olib kelmoqda.

Shu jihatdan, mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoev ta’kidlaganidek, “Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo’lidan borish imkoniyatini beradi. Davlat va jamiyat boshqaruvida, shuningdek ijtimoiy sohalarida ham raqamli texnologiyalarni keng joriy qilish orqali ish samaradorligini oshirish mumkin. Bir so’z bilan aytganda, bu odamlar hayotini ancha yaxshilaydi. Raqamli iqtisodiyot esa faqat bitta yo’nalish emas, balki u biznes, sanoat, sifatli ta’lim va turli xizmatlarni ham o’z ichiga oladi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli texnologiyalarni davlat boshqaruvi va jamiyatning turli sohalariga keng joriy etish bugungi kunning eng muhim yo’nalishlaridan biridir. Bu jarayon nafaqat ish samaradorligini oshiradi, balki aholiga yaratilayotgan xizmatlar sifatini ham sezilarli darajada yaxshilaydi. Eng asosiysi esa, insonlarning kundalik hayotini qulay, tezkor va zamonaviy darajaga olib chiqadi. Demak, raqamli iqtisodiyot taraqqiyotning muhim omili bo’lib, jamiyat farovonligini ta’minlashda katta ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. — Toshkent, 2021.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy sayti — www.president.uz
3. O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi rasmiy sayti — www.mitc.uz
4. World Bank. Digital Economy for Development hisobotlari.
5. OECD. Digital Economy Outlook.
7. Internet manbalari va zamonaviy ilmiy maqolalar.